

## MAKTAB O`QUVCHILARINING O`ZIGA ISHONCH HISSINI OSHIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O`RNI

*Ismatova Nafosat Nurmaxmat qizi*  
*Chilonzor tumani 126-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o`quvchilarining o`qishga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda maktab psixologining tutgan o`rni va uning ta`siri tahlil qilingan. Maqolada o`quvchilarning motivatsiyasi, psixologik salomatligi va shaxsiy rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar ko`rib chiqilgan. Maktab psixologining asosiy vazifalari, u qo`llaydigan metod va yondashuvlar, shuningdek, ota-ona va o`qituvchilar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar yoritilgan. Tadqiqotda psixologik yordam orqali o`quvchilarda o`ziga ishonchni oshirish, stressnikamaytirish va o`quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishning samarali yo`llari ko`rsatib berilgan. Maqola ta`lim sifatini oshirishda maktab psixologining muhim rolini asoslab beradi.

**Kalit so`zlar:** Maktab psixologi, o`quvchilar motivatsiyasi, o`qishga qiziqish, psixologik yordam, ta`lim sifati, psixologik maslahat, o`quvchilarni rag`batlantirish, ruhiy salomatlik, maktab muhiti, ota-ona va o`qituvchi hamkorligi.

### Kirish

Bugungi kunda ta`lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o`quvchining shaxsiy rivojlanishi, ruhiy holati va o`qishga bo`lgan munosabati ham muhim o`rin egallamoqda. Ayniqsa, o`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishini shakllantirish va uni rivojlantirish ta`lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur jarayondamaktab psixologi muhim rol o`ynaydi. Chunki aynan psixolog o`quvchilarning ichki holatini, emotsional ehtiyojlarini, motivatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Asosiy qism:** Maktab jamoasida sog`lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish ta`lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Sog`lom ijtimoiypsixologik muhit o`quvchilar, o`qituvchilar va ota-onalar o`rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shaxsiy rivojlanishni qo`llab-quvvatlash va ta`lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Muammolarni aniqlab, ularni qo`llab-quvvatlaydi hamda o`qishga bo`lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Ushbumaqolada maktab psixologining vazifalari, yondashuvlari va o`quvchilar bilan olib boriladigan psixologik ishlarning o`qishga bo`lgan qiziqishni oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

O`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishi —bu ularning darslarga bo`lgan ijobiy munosabati, bilim olishga bo`lgan ichki motivatsiyasi va faol ishtirok

etishga intilishidir. Bu holat nafaqat o'quv natijalarini yaxshilaydi, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini, ijtimoiy faolligini va maqsadga intiluvchanligini ham kuchaytiradi. Agar qiziqish past bo'lsa, o'quvchi passiv bo'lib qoladi, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni esa sustlashadi. Maktab psixologi o'quvchilar bilan bevosita ishlaydi va ularning psixologik holatini tahlil qilib, o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga xizmat qiladi. Quyidagilar psixologning asosiy faoliyat yo'nalishlaridir:

1. O'quvchilarni psixologik diagnostika qilish
  2. Motivatsiyani oshiruvchi trening va mashg'ulotlar tashkil etish
  3. O'quvchilarda stress va xavotirni kamaytirish bo'yicha ish olib borish
  4. O'qituvchi va ota-onalar bilan maslahatlashuvlar tashkil qilish
- Maktab psixologlari tomonidan qo'llaniladigan quyidagi metodlar o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi:

**–Individuallashtirilgan suhbatlar:**

Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, unga mos rag'batlantirish usullarini qo'llash.

**–Motivatsion treninglar:**

O'z maqsadini aniqlash, ichki kuch va imkoniyatlarni ochishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar.

**–Stressni yengishga doir mashqlar:**

Imtihonlar, baholash jarayoni yoki ijtimoiy bosim bilan bog'liq muammolarni kamaytirish.

–Ijobiy muhit yaratish: Sinf va maktabda sog'lom psixologik iqlimni shakllantirish. Maktab psixologi nafaqat o'quvchi, balki ota-ona va o'qituvchilarning ham ruhiy va pedagogik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Boladagi bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ya'ni korreksiya qilishda, uning sabablarini, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, balki parallel ravishda ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Farzandlar har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor. O'quvchilardagi bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda pedagoglarning vazifalari: o'zining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari; bolaning o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari haqida suhbatlashish; o'quvchining "ichki dunyosiga" quloq solish; bola shaxsini baholamaslik, shunchaki salbiy xatti-harakatlarining oqibatlarini tushuntirish. Mana yuqoridagi bayon qilingan hamma fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit, turli bolalarga o'smirlarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun ham

murakkabki, psixik taraqqiyotining o‘zi murakkab va qarama –qarshi o‘zgarishlardan iborat usulidir. Ta’lim –tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko‘p qirralidir. Xulosaqilib aytganda, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va uni barqaror ushlab turish —zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda maktab psixologining tutgan o‘rni beqiyosdir. U o‘quvchilarning psixologik holatini chuqur tahlil qilib, ularda motivatsiyani oshirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, stressni kamaytirish va sog‘lom o‘quv muhiti yaratishda faol ishtirok etadi. Psixolog, shuningdek, otalar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlagan holda, o‘quvchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, maktab psixologi faqat yordamchi emas, balki ta’lim sifatini oshirishda asosiy kalit shaxslardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axmedova N. “Psixologiya asoslari”, Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
2. G‘aniyeva N., Raxmatova M. “Ta’lim psixologiyasi”, Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Erkaboyeva D. “Bola psixologiyasi”, Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Sharipova Z. “Maktab psixologi amaliyoti”, Samarqand: Zarafshon, 2021.
5. Vygotsky L.S. “Pedagogik psixologiya”, Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Maslow A. “Motivatsiya va shaxs”, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017 (Tarjima nashr).
7. Karimova R. “Psixologik maslahat va diagnostika asoslari”, Toshkent: Innovatsiya, 2022.
8. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali (mavzuga oid elektron manbalar)